



Ulug'bek SHUKURULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: twittershum@mail.ru

O'zMU professori, s.f.d. K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida

SIYOSIY - PR VA SIYOSIY MANIPULYATSIYANING JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif siyosiy PRning ommaviy kommunikatsiya (lotincha-communication-ma'lumot, uzatish) asosida ommaviy ongga ta'sir etishning funksiyalari, PR, ya'ni jamoatchilik bilan aloqa siyosiy jarayonlarda, ommaviy ong faoliyatida strategik o'rin tutishi haqida ilmiy-nazariy yondashuvlarini aks ettiradi. Buning ma'nosi, siyosiy PR ommaviy ongni boshqaradi va uni yo'nalishini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Siyosiy PR, siyosiy manipulyatsiya, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy vaziyat, ommaviy kommunikatsiya, axborotlashgan jamiyat, demokratik jamiyat, siyosiy texnologiya, siyosiy transformatsiya, siyosiy tizim.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПИАРА И ПОЛИТИЧЕСКИХ МАНИПУЛЯЦИЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье автор отражает научно-теоретические подходы к функциям политического PR по воздействию на общественное сознание на основе массовой коммуникации (лат. communication - информация, передача), а также стратегическую роль PR, то есть связей с общественностью, в политических процессах и деятельности общественного сознания. Это означает, что политический пиар управляет общественным сознанием и задает его направление.

Ключевые слова: Политический пиар, политическое манипулирование, политическое сознание, политическая культура, политическая ситуация, массовая коммуникация, Интернет, информационное общество, демократическое общество, политические технологии, политическая трансформация, политическая система.

THE IMPACT OF POLITICAL PR AND POLITICAL MANIPULATION ON ENSURING STABILITY IN SOCIETY

Annotation

In this article, the author reflects the scientific and theoretical approaches to the functions of political PR to influence public consciousness based on mass communication (Latin - communication - information, transmission), and the strategic role of PR, that is, public relations, in political processes and the activities of public consciousness. This means that political PR controls public consciousness and sets its direction.

Key words: Political PR, political manipulation, political consciousness, political culture, political situation, mass communication, internet, information society, democratic society, political technology, political transformation, political system.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan ommaviy kommunikatsiya matbuot, ayniqsa, radioning keng tarqalishi oqibatida paydo bo'ldi. Bugun televidenie, internet va boshqa axborot vositalarining keng tarqalishi va rivojlanishi oqibatida siyosiy mavqe hamda o'zining maqomiga ega bo'lib bordi. Hattoki, "to'rtinchi hokimiyat" va "elektron hukumat" degan iboralarning jamiyat siyosiy hayotida tobora mustahkamlanib borayotganligi, ommaviy axborot oqimini boshqarishga ehtiyojning ortayotganligini ko'rsatmoqda. Demak, strategik jihatdan olib qarganda siyosiy - PR aynan shu jarayonlarni siyosiy maqsadlarda boshqarish, ta'sir etish va ma'lum maqsadga yo'naltirish, muayyan natijalarni qo'lga kiritish uchun xizmat qiladi. O'zbekistonda siyosiy PR hodisasining keng ommalashuvida 1996 yil alohida o'rin tutadi. Sababi aynan shu yilning may oyida O'zbekiston jahonning eng yirik kompyuter aloqa tizimi "internet" bilan rasmiy aloqa o'rnatdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu masala yuzasidan olimlar tomonidan qator izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda PR texnologiyalar, targ'ibot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va siyosiy texnologiyalar kabi masalalar bo'yicha tadqiqotlar qilingan.

Shuning uchun O'zbekiston sharoitida siyosiy - PR qator muammolar, birinchi navbatda, inson ruhiyatida o'tmish qoldirgan "chandiqlardan xalos bo'lishi, siyosatga, davlatga ishonch hissini shakllantirish bilan bog'liq.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yildan boshlangan xalq bilan muloqot qilish siyosati, aynan siyosiy PRni shakllantirish, insonga davlat begona emas, uning tayanchi, hayoti, huquq va erkinliklarining

ishonchli kafolati ekanligini nafaqat uqtirish, balki bunga ishonitirish, amalda qaror toptirish siyosati hisoblanadi.

Siyosiy - PR texnologiyalarining bugungi o'zbek mentaliteti, aniqrog'i uning siyosiy mentalitetini shakllantirilishida "spin-texnologiya", "spin-master", "spin-doktor" va hokazo uslublardan foydalana olish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda PR texnologiyani siyosiy menejment va siyosiy marketing hodisalarini hisobga olgan holda qo'llash samarali bo'ladi.

"Spin" tushunchasiga kelsak, u axborotni iste'molchiga ijobiy shaklda yetkazib beruvchi kommentator faoliyati tushuniladi. Spin hodisasini "axborot nazorati" tushunchasiz tasavvur qilish qiyin. Bunda fan metodologiyasida tarixiylik va mantiqiylik, hozirgi zamon va kelajak dialektikasi, sabab-oqibat, mohiyat-hodisa prinsiplari talablari borki, ularsiz ko'rinishidan oddiy, biroq fundamental va strategik muammoga javob topish qiyin.

Shu o'rinda nemis olimi F.Nitsshening qadimgi yunon fani va madaniyati hamda olamni bilish darajasiga bergan bahosini eslash mumkin, ya'ni "greklar chuqurlikdan sirtqi edilar". Bu bilan F.Nitsshe yunonlarni ko'proq illyuza, afsona va mazmunga emas, shakl hamda belgiga moyilligini ta'kidlamog'chi bo'ladi. Har qanday tashqi hodisa ichki, hali idrok qilinmagan mohiyat bilan uzviy bog'liqligiga sha'ma qiladi. Sirtidan qaraganda Nitsshening ushbu paradigmasi yuqorida ifodalangan muammo va savolga aloqasizdek ko'rinadi. Aslida esa axborot jamiyati va globallashuv sharoitida milliy o'zlik hamda milliy mustaqillikni muammoga ilmiy yondashuvsiz ta'minlash mushkul. Gap shundaki, yuqorida ta'kidlanganidek, global axborot bosimi va reklama hodisasi o'zining manipulyativ

jihatlar bilan nafaqat inson ongiga, balki bugungi kunda inson ong osti qatlamiga ham qaratilgani bilan xavflidir.

Shu qatorda, O'zbekistonda XX asrning 90 yillaridan e'tiboran turli sohalarida tub o'zgarishlar, ilmiy tilda ifodalaganda "modernizatsiya", "liberalizatsiya" va "demokratizatsiya" jarayonlari kuzatiladi.

Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan jamiyatdan yangi demokratik jamiyatga o'tish bir zumlik yoki bir necha yillik hodisa emasligi ayon. Ijtimoiy ongda, demak, individual ong darajasida ham eski siyosat va mafkura, eski boshqaruv usuli ta'sirlari uzoq saqlanib qoldi. O'tmish qadriyatlarini turli chaqiriqlar, shiorlar va buyruqlar bilan isloh qilish mushkul ish ekanligi, hali eski siyosiy madaniyat va siyosiy psixologiya uzoq muddat jamiyatda saqlanib qolishi, buning uchun ta'lim va tarbiya sohalarini yangilash zarurligi ma'lum. Demak, eski siyosiy ong va siyosiy madaniyat o'rtasida muhim hodisa – siyosiy jarayon mavjudligi ma'lum bo'ladi. Biz taklif etmoqchi bo'lgan siyosiy PR texnologiyalari siyosiy jarayonni nafaqat qayd qilish, balki uni muayyan maqsad tomon boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Boshqacha qilib aytganda, taniqli siyosiy texnologlardan biri K.Fenner ta'biricha, bunday yondashuv fuqarolarning asosiy qadriyatlarini, bilimlari va emotsional aloqalari, shuning bilan birga ularni hokimiyat hamda siyosiy tizimga munosabatlarini aniqlashga ko'maklashadi. Buning boisi, siyosiy PR texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya jarayonlari ayri holda mavjud emasligi, birinchisi ikkinchisini siyosiy madaniyat unsurlari orqali harakatga keltirishi va muayyan maqsadlar tomon yo'naltira olishidadir. Metodologik jihatdan yondashilganda PR siyosiy texnologiyalar va ommaviy axborot kommunikatsiyalari munosabatlari o'zaro dialektik jarayonni tashkil etadi. Bu degani, PR siyosiy texnologiyalarini nafaqat ijoiy, balki siyosiy vektorda ham ommaviy kommunikatsiya jarayonlariga ta'sir qila olishi demakdir. Yaqin Sharq, xususan, Ukrainada ijtimoiy beqarorlik va fuqarolar urushlarning sodir bo'lishi, "arab bahori", "maydan", "rangli inqilob" degan siyosiy texnologiyalarni ommaviy kommunikatsiya jarayonlariga malakali ravishda qo'llash orqali mumkin bo'lganligiga bugun hech kimda shubha yo'q.

Ushbu jihatni taniqli siyosatshunos N.Jo'rayev to'g'ri ilg'aydi va "Harakatlar strategiyasi"da mazkur jihat bejiz nazarda tutilmaganligini ta'kidlaydi. Jumladan, u quyidagi talablarni strategik hamda metodologik ahamiyatini alohida to'xtaladi:

Birinchidan, demokratik davlat boshqaruvi mezonlarini belgilovchi tamoyillarni hayotga joriy etib borish talab etiladi. Boshqaruvda inson huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi, oshkorlik, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash.

Ikkinchidan, davlat boshqaruv apparatining huquqiy bazasini yaratish, uni zamonaviy davlatchilik talablari asosida takomillashtirish.

Uchinchidan, ijro hokimiyati tizimi faoliyatini yanada mustahkamlash, uning vazifalarini aniq belgilash.

To'rtinchidan, davlat boshqaruv organlari faoliyatini ochiqdini ta'minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari, ya'ni nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash kabi masalalarga e'tibor qaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy va qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, ob'ektivlik, tizimlashtirish hamda fanlararo yondashuvlar asosida yoritilgan. Ushbu tadqiqotni olib borishda xolislik va solishtirma tamoyillariga asoslanilib, ijtimoiy fikr natijalarida yuzaga kelgan ma'lumotlarni ilmiy tahlil orqali qiyosiy metodlarga asoslanib bayon qilindi.

Tahlil va natijalar. Bugun internet shu qadar rivojlandiki, mamlakatimiz aholisi kundalik dolzarb axborotlardan xabardor bo'lishi ommalashdi, internetsiz hayotni tasavvur etish qiyin bo'lib qoldi. Bunday sharoitda davlat axborot monopoliyasiga tabiiy ravishda barham berildi. Senzura yoki "norasmiy" senzura degan institutlarga o'rin qolmadi. Buning ham ijoiy va ham salbiy jihatlar bor.

Ijoiy jihati - insonni xolis, ob'ektiv axborot iste'moli uchun sharoit va imkoniyatga ega bo'lishi bo'lsa, salbiy jihati esa milliy mustaqilligimiz, xalqimiz mentaliteti, milliy o'zligiga xavf keltirib chiqaruvchi begona ma'lumotlar ekspansiyasidir.

Bunday vaziyat va tendensiya siyosiy PRga ehtiyojni oshiradi – siyosiy menejmentsiz xalqimiz ko'zlagan maqsadlarga

erishishda turli chalg'ituvchi to'siqlar, sun'iy g'ovlar yuzaga kelishi ehtimoli kuchayadi. Natijada, "Harakatlar strategiyasi" va umuman, davlat siyosatidagi ustuvor vazifa - ijtimoiy barqarorlik, millatlar va dinlararo hamjihatligini mustahkamlash masalasiga turli xavflar tug'ilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi nafaqat ob'ektiv, xolis ma'lumotlarni ommaga yetkazish, balki milliy rivojlanish manfaatlarini va milliy mustaqillikdan uzoqlashtirishdir. Bu - siyosiy masala.

O'zbekiston axborotlashgan jamiyatga aylanmoqda. Bunda davlat axborot siyosatini yo'lga qo'yish, buzg'unchi axborotlardan aholimiz, ayniqsa yosh avlodni - mamlakat kelajagini himoya qilish, millat madaniy, ma'naviy vorisligini ta'minlash - milliy mustaqilligimizning oliy maqsadiga aylanadi. Siyosiy PR, ya'ni aholi bilan davlat axborot aloqasini zamon talabi darajasiga ko'tarish hayotiy masalaga aylanadi.

Insoniyat XXI asrga kelib axborotlashgan jamiyat bosqichiga o'tdi. Buni xalqaro tashkilotlar ham e'tirof etmoqda. Masalan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yil 26 mayda "17 may - xalqaro axborotlashgan jamiyat kuni" deb e'lon qilindi. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarining kompyuterlashuvi va informatizatsiyalashuvi bugungi kunda "axborot inqilobi" haqida gapirishga ham o'rin bermoqda. Axborotlashgan jamiyat o'z funksiyalarini qator omillar ta'sirida amalga oshiradi. Ular ichida eng asosiysi va yetakchisi iqtisodiy omildir.

Iqtisodiy omil hal qiluvchi kuch bo'lib, u iqtisodiyotning tovar, xizmat ko'rsatish, qo'shimcha qiymat yaratilishi va aholini ish bilan bandligini belgilovchi asosiy resursi (manba)dir. PR texnologiya pirovard maqsadda ham iqtisodiy omilga borib taqaladi. Navbatdagisi ijtimoiy omil bo'lib, u PR texnologiya ta'siri natijasida inson "axborot ongi"ni, uning sifat darajasini, hayot sifatini belgilash ko'rsatkichidir.

Ushbu ko'rsatkich, ijtimoiy ong rivojlanishining nafaqat indeksi va indikator, balki uni faollashuvi uchun "katalizator" vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, siyosiy-PR shaxslararo munosabatlarni nazorat qila olishligi bilan ahamiyatlidir. Siyosiy - PR, ayniqsa, saylov kampaniyalarida elektorat ongini zabt etishda qo'l keladi.

PR texnologiyalar jamiyat hayotini boshqarish, nazorat qilish va muayyan maqsadlar tomon yo'naltirishning zamonaviy usuli va vositasiga aylandi. Siyosiy boshqaruv bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Biroq, butun jamiyatni boshqarish uchun ommaviy axborot vositalari siyosiy lashuvi kerak bo'ladi. Bu esa amalga oshmaydigan ishdur. Chunki, siyosat bilan jamiyatning faqat muayyan qatlamlarigina shug'ullanadi. Amerikaliklar ushbu jihatni allaqachon anglab yetdilar va "ijtimoiy jurnalistika"ni rivojlantirish payiga tushdilar.

Ma'lumki, fuqarolarni ko'proq tirikchilik masalalari va ko'ngilochar ma'lumotlar qiziqtiradi. Bu - demokratiya ma'lum darajada qaror topgan AQShda kuzatilsa, O'zbekistonda aholining siyosiy faolligi mustaqillikka erishgan bo'lsak-da benihoyat past darajada. Bu achchiq haqiqat, insonning siyosatdan bezganligi, siyosat kishilarni laqillatish vositasi, real voqe'likni, haqiqatni aks ettira olmasligi, siyosiy partiyalar nomigagina, sun'iy institut ekanligini allaqachon anglab yetganlari bilan bog'liq.

Agar aholi o'rtasida ushbu masala bo'yicha sotsiologik so'rovnoma o'tkazilsa, masala ravshan bo'ladi. Buning yana bir sababi, sobiq tuzum davrida insonning siyosatdan begonalashuvi, siyosatning (demak, davlatning) faqat jazolovchi, repressiya instituti ekanligini o'z tanida his etganligi, bu haqda tarixiy xotira (qatag'on yillari, "paxta ishi" va h.k.) saqlanib qolganligidir.

Demokratik tizim esa yalpi, total emas, balki alohida, vaziyat tazoqo etuvchi nazorat sxemasiga asoslanadi. Bu tizimda axborot nazorati uchun muhim tayanch "nuqta" mavjud emas, bunday nuqta doimo o'zgarib turadi. Totalitar axborot nazorati esa negativ tabiatda bo'lib, u taqiq va ta'qib prinsipiga asoslanadi. Shu bois iste'molchi real ma'lumot olishga qiziqadi. Buning ham ijoiy va ham salbiy jihatlar mavjud. Salbiy jihati - tashdiqlanmagan, mish-mish, tendensiya oz, subyektiv axborotlar ta'siriga tushib qoladi. Buni O'zbekistonda mustaqillik yillarida faoliyat ko'rsatayotgan ikki nashr - "Xalq so'zi" va "Darakchi" gazetalar misolida kuzatish mumkin. "Xalq so'zi"da odatda, rasmiy, siyosiy va huquqiy asosida tayyorlangan axborot mahsuloti iste'molchiga uzatiladi. "Darakchi"da esa tezkor, hali

sovumagan, sabab-oqibat dialektikasi talablaridan uzoq, gohida emotsional axborot uzatishga moyillik seziladi. Buni falsafiy-metodologik tahlili shuni ko'rsatdiki, inson tabiatan shov-shuvga sabab bo'luvchi, ko'proq negativ tabiatdagi (tabiiy ofat, jinoyatchilik, noqonuniy xatti-harakat va hokazo) ma'lumotlarga qiziqar ekan. "Darakchi" va shunga o'xshash "sariq", "xiyobon" nashrlar shu bois ommaviylashadi, ularga talab ortadi. Bu – paradoksil hodisadir. Insonda ijtimoiy og'ish va salbiy hodisalarga qiziqish hissi negadir kuchli ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunisi e'tiborliki, bunday ma'lumotlar ta'sirida insonda negativ immunitet shakllanadi, ayniqsa yosh avlodda, uning ongida berahmlik, yengiltaklik, shavqatsizlik, behayollik kabi hislatlar qaror topadi. Jamiyatda kuzatilayotgan noxush hodisalar, an'anaviy ma'naviy qadriyatlardan og'ishlar salbiy ma'lumotlar ta'sirida shakllanadi.

Bundan umrini tugatgan, hayot talabidan orqada qolgan sobiq senzura institutini yana tiklash kerak, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bugungi axborot globallashuvi, axborot jamiyati sharoitida senzura yoki axborotni biron bir siyosiy institut "qosh-qovog'i"ga qarab, uni "qayta ishlab" (sovutib) uzatish mumkin emas, iste'molchi "qaynoq" axborotni ma'qul ko'radi. Shu bois nashriy axborot internetdan orqada qolmoqda. Axborot "tekislanib" nashrdan chiqquncha uning "qaynoq" variantini qaynoq kofe kabi iste'molchi allaqachon hazm qilib bo'ladi. Tezkorlik - bugungi axborot bozorining muhim jihati. Bu muayyan darajada talab hamdir.

Virtual obrazlar bilan bola ongigagina emas, uning ong osti olamiga ham ta'sir etadi, anglanmagan obrazlar natijada kodlashadi. Shu bois PR texnologiyalarning nafaqat ijobiy, balki salbiy tabiati ham mavjud. Maktab yoshidagi yoki talaba yoshidagi yoshlarga turli kompyuter o'yinlari orqali ta'sir ko'rsatib, ularni hatto suiqasd holatiga ham keltirish mumkin. Masalan, bir necha yil oldin "ko'k kit" kompyuter o'yini qanchadan-qancha yoshlarning o'limiga sabab bo'ldi. Mazkur holat muayyan psixologik texnologiyaga asoslangan bo'lib, u qiziqarli, bolalar qiziquvchanligini hisobga olgan holda uni asta-sekin falokat yoqasiga olib boradi va so'nggi nuqta – inson o'z joniga qasd qiladi.

PR texnologiyalar va ommaviy axborot kommunikatsiyalarining muhim funksiyalaridan biri - jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishidir. Ushbu masala yuzasidan siyosatshunoslik fanida qator yondashuvlar mavjud bo'lib, ular o'rtasida hamfikirlik yoki umumiy tushuncha mavjud emas. Shunisi ma'lumki, PR texnologiyalar ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat siyosiy jarayoniga ta'sir qiladi. Bu ta'sir individ, shaxs darajasida ham, jamiyat darajasida ham kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Bunday strategik vazifalar mohiyatan siyosiy vazifalardir, ular amaliy ishlanmalarsiz faqat vazifa, shior bo'lib qolishligi aniq. O'tmishda ham talay ulug'vor chaqiriqlar, shiorlar va da'vatlar bo'lgan. Biroq, ushbu shiorlar

real, amaliy ilmiy asoslar yaratilmaganligi sababli quruq gap bo'lib qolgan. Bugungi vaziyat, hayot talabi boshqacha - real, konkret, xalq, aholi ijtimoiy psixologiyasini, mentalitetini va ayniqsa uning konkret talab va zhtiyojlarini sotsiologik jihatdan o'rganmasdan turib siyosiy qarorlar qabul qilish mantiqqa va umuman real voqe'likka ziddir.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida" va "Ijtimoiy hamkorlik to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi aynan shu reallikni aks ettiradi – so'zda emas, amalda yaratuvchi kuch, ijodkor omil shakllanadi. Bu - bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan zamonda yashovchi, uni axborot tanlashi va iste'moliga hech qanday to'siq, g'ov mumkin bo'lmagan, erkin axborot olish huquqiga ega fuqarodir. Bunday sharoitda PR siyosiy texnologiyalarining kommunikatsion jarayonlarida o'rni, roli va mavqei tobora ortib borishi kuzatiladi. Yuqoridagi tahlildan PR siyosiy texnologiyalarining asosiy funksiyalari haqida xulosa shakllanadi. Bu funksiyalar quyidagicha: gnoseologik, tarbiyaviy, aksiologik, nazorat qiluvchi, manipulyativ va yo'naltiruvchi funksiyalardir.

Jamiyat konkret ijtimoiy tuzilma va organizm bo'lib, uning asosini muayyan siyosiy tizim tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etilgan funksiyalar siyosiy tizim elementlari orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Bizningcha, siyosiy tizim elementlari va tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) Davlat organlari, uning qonunchilik va ijro hokimiyatlari.
- 2) Qurolli kuchlar.
- 3) Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, birinchi navbatda sud, prokuratura va ichki ishlar organlari.
- 4) Davlat sud arbitraji.
- 5) Siyosiy partiyalar.
- 6) Siyosiy harakatlar.
- 7) Jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, ijodiy uyushmalar va hokazo).

Jamoat tashkilotlari, turli ijtimoiy harakatlar, masalan, volontyorlik (ko'ngillilik), ayniqsa, din garchi siyosiy tizimga bevosita ta'sir ko'rsata olmasada, ularning faoliyati siyosiy xarakterga ega. Masalan, sekulyar siyosat mavjud bo'lmasa, din siyosatlashadi, davlat va din bir-birlarining ishiga aralashadi, ijtimoiy dilemmaga yo'l ochiladi. Siyosiy PR texnologiyalari bularning barchasiga barham beradi, davlatning, xalqning tanlagan strategik yo'lidan bardavomligini va samaradorligini belgilovchi ishonchli omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun "kim axborotga egalik qilsa, dunyoga egalik qiladi", degan ibora qanchalik emotsional bo'lsa, shunchalik ratsional hamdir degan xulosa qilish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, parlament tomonidan bunday holatlariga barham berishga qaratilgan qonun bejiz qabul qilinmadi, u yoshlar, aholining barcha qatlami hayotiga qaratilgan turli jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Анализ состояния - перспектив развития Интернет в РУз. Информационно-аналитический отчет / Узбекское агентство связи и информатизации программе развития ООН в РУз. - Ташкент: ППРООН, 2009. - С. 10.
2. Иванкова К.А. Англо-русский и русско-английский словарь по рекламе и PR. - СПб.: Питер, 2004. - С. 140.
3. Ницше Ф. Сочинения. Т.1. - М.: Мысль, 1990. - С. 496.
4. Феннер К. Политическая культура / Политология. Краткое тематический словарь. - М.: ПАУ, 1992. - С. 70.
5. Jo'rayev N. Tamaddunga da'vat. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B. 51.
6. Саидходжаев С., Кучкаров А. Роль информационно-коммуникативных технологии в развитии общества // Халқаро муносабатлар - Международные отношения. - 2006. - №1. - С. 65-69.
7. Conte Ch. Angels in the Newsroom // Governing. - 1996. - №11. - R. 20.
8. Maitov D. Geosiyosat va jurnalistika. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2017. - B. 96.
9. Jumayev R., Yovqochev Sh.. Siyosiy texnologiyalar: O'quv qo'llanma. - T.: TDShI, 2018. - B. 232.
10. Малкин Е., Сучков Е. Политические технологии: - Москва: Издательство Лабиринт, 2021. - С. 656
11. Евдокимов В.А. Масс-медиа как сфера применения политических технологий. Учебное пособие. - Москва: Издательство - НИЦ ИНФРА, 2024. - С. 230.